



**MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHISINING NUTQ MADANIYATI
VA UNGA QO'YILADIGAN PEDAGOGIK TALABLAR**

Turg'unboyeva Nozima To'lqinjon qizi

ADPI magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7370351>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining nutqiga qo'yiladigan talablar, nutq madaniyati va uni tarkib toptirish, tarbiyachining bugungi kundagi mavqei haqida muhokama olib borilgan..

Kalit so'zlar: tarbiyachi, nutq, nutq madaniyati, nutq texnikasi, uzluksiz ta'lim tizimi, axborot texnologiyalar

Аннотция: В данной статье рассматриваются требования к речи воспитателей дошкольных образовательных организаций, культура речи и ее состав, позиция педагога на сегодняшний день.

Ключевые слова: воспитатель, речь, культура речи, техника речи, система непрерывного образования, информационные технологии.

Abstract: In this article, applied to the speech of teachers of preschool educational organizations requirements, speech culture and its composition, and the position of the teacher today were discussed.

Key words: educator, speech, speech culture, speech technique, continuous education system, information technologies

Kirish. Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehr-muhabbati ortadi, umri davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Buning uchun, eng avvalo, oila asosiy o'rin egallasa, maktabgacha ta'lim tashkilotining o'rni ham beqiyos.

Shunga ko'ra, mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar natijasida maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori, "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni, "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli, 2019 yil 8 maydagi Ozbekiston





Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarorlari ushbu tizim faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, butun tizimda sifat o'zgarishiga erishish, ta'limning uzluksizligini ta'minlash, sohani bugungi kun talablari darajasida modernizatsiya qilishga xizmat qilishi shubhasiz.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e'tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam. Nutq madaniyati hozirgi davr tilshunosligi oldida turgan eng katta muammolardan biri ekanligi barchamizga ma'lum. Zamonaviy axborot texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar xuruji inson ma'naviyatiga, ruhiyatiga, shu bilan birga uning nutqiga salbiy ta'sir o'tkazib kelmoqda. Bu muammoni hal etish umum madaniyatimiz taraqqiyoti, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim, eng asosiy ta'lim o'chgi bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog-xodimlarinig yuksak saviyasiga, shu bilan birga, uni ifoda etuvchi nutqiga bo'g'liq bo'ladi.

Xo'sh, pedagogning nutqi qanday bo'lishi kerek, va unga qo'yilgan talablar nimalardan iborat? Bizga ma'lumki, barcha kasblar orasida tarbiyachilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Zero, tarbiyachi yosh avlod qalbi kamolotining me'mori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviy - siyosiy jihatdan chiniqqirib, tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, bolalarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqshsodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu ma'suliyat tarbiyachidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, tarbiyalanuvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojpantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun doimo tarbiyachining kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, gamxo'rlik qilish, unga zarur shart - sharoitlar yaratish, tarbiyalanuvchining ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish barobarida, albatta uning nutqiy malakasi yuksak darajada bo'lishi muhim ahamiyat kasb etishi lozim.



Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi har doim shuni yodda saqlashi kerakki, nutq bu maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda jismoniy, ruhiy omillar rivojlanishiga ko'maklashuvchi vositadir. Tarbiyachi bolaga ta'lim-tarbiya berish bilan bir vaqtda uni keyingi ta'lim jarayoniga, ya'ni maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun zamin hozirlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining barcha ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarda bolalarga o'z ona tilini o'rgatish orqali ularning nutqi shakllanib boradi. "Ona tili,- deb yozadi K.D.Ushinskiy, -har qanday taraqqiyotning asosi, butun bilimning xazinasidir. Har qanday tushunish undan boshlanadi, u orqali va unga qaytadi. Shu bilan birga taniqli pedagog Y.I.Tixeyeva tarbiyachi nutqiga yuksak baho berib, "Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilar beixtiyor taqlid qiladigan na'muna tarbiyachining tilidir, uning tili bolalar tiliga g'oyat samarali va nihoyatda kuchli ta'sir ko'rsatadigan hamma narsalarni o'zida birlashtiradigan bo'lishi kerak" degan edi. Demak, tarbiyachining nutqi bola uchun asos vazifasini o'tar ekan, unga qo'yilgan pedagogik talablarga albatta e'tibor berish kerak.

Xulosa. Pedagog talaffuzning adabiy me'yorlariga rioya qilishi, o'z nutqida turli shevalar, mahalliy so'zlashuvlar ta'sirini bartaraf etishi, so'zlarda urg'uni to'g'ri qo'yishi lozim. Nutqda hissiyotlar, fikrlarning eng nozik qirralarini ham ifodalash mumkin. Bunga nafaqat tegishli so'zlar yordamida, balki ifodalilikning intonatsion vositalari, ovoz kuchi, sur'ati, mantiqiy urg'usi, pauza, ritm, tembr, ohangdan to'g'ri foydalanish tufayli erishiladi. Ushbu vositalardan foydalangan holda tarbiyachi tomonidan o'qib berilgan she'rlar, ertaklar, hikoyalar bolalarga ularning mazmunini yaxshi tushunish, ona tilining qudrati va go'zalligini his qilish imkonini beradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 2010-yil.
2. M.Jumaboyev. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo'llanma. 1996-y.
3. Z.Masharipova, T.Matyoqubova O'zbek yozma adabiyotida folklor an'analari. Toshkent - 2011-y.
4. www. ziyonet.uz. Bolalar adabiyoti.
5. Abdurahmonova Sayyora Shaxobidinovna "FACTORS FOR FORMATION OF PEDAGOGICAL CULTURE OF PRESCHOOL EDUCATIONAL TEACHERS VOLUME 2 | ISSUE 6 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7

